


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 676,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **1,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **452,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **145,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 224,8** mlrd. so'mni (**8,0 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **113,8** mlrd. so'mni (**27,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, foizda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 676,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **98,1 %** ni tashkil etdi.



### ENG YUQORI ULUSH


Navoiy viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **36,5 %** ulush bilan **975,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **18,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissi **83,1 %** va yirik korxonalar hissi **16,9 %** ga to'g'ri keldi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	Yil
88,6	83,1	2019- yil yanvar-may
11,4	16,9	2020- yil yanvar-may

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 224,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **8,0** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,1** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Uchquduq (99,8 %), Tomdi (99,3 %), Nurota (99,2 %), Qiziltepa (98,9 %), Karmana (97,3 %), Xatirchi (96,3 %) tumanlarida va Zarafshon (97,5 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy shahri (99,5 %), Navbahor (99,2 %) va Xatirchi (98,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2676,9</b>	<b>98,1</b>	<b>452,1</b>	<b>145,2</b>	<b>2 224,8</b>	<b>92,0</b>
Navoiy sh.	975,9	99,5	403,9	137,7	572,0	83,2
Zarafshon sh.	231,2	95,8	5,9	180,9	225,3	94,6
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	434,4	96,3	11,8	9,9 m	422,6	93,9
Konimex	69,5	98,3	2,7	6,9 m	66,8	95,0
Qiziltepa	310,8	97,6	3,3	76,8	307,5	97,9
Navbahor	142,8	99,2	12,5	29,7 m	130,3	90,8
Nurota	97,3	97,4	0,8	66,6	96,5	97,8
Tomdi	18,5	94,3	0,1	100,9	18,4	94,3
Uchquduq	102,8	96,6	0,2	44,8	102,6	96,7
Xatirchi	293,7	98,7	10,9	166,5	282,8	97,1

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **45,2 %** ga o'sdi va **452,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **16,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 224,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,1 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq (99,8 %), Tomdi (99,3 %), Nurota (99,2 %) va Qiziltepa (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (41,4 %), Navbahor (8,7 %), Konimex (3,9 %) va Xatirchi (3,7 %), tumanlarida kuzatildi.



**NAVOIY VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 680,1** ming so'm (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **3,7** % ga kamaydi) va **Karmana** (97,8 %), **Navbahor** (97,4 %), **Xatirchi** (96,9 %), **Konimex** (96,6 %), **Uchquduq** (96,3 %) hamda **Qiziltepa** (96,0 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi **Navoiy shahri** (6 768,0 ming so'm) va **Karmana tumani** (3 445,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 680,1</b>	<b>96,3</b>
<b>Navoiy sh.</b>	6 768,0	94,2
<b>Zarafshon sh.</b>	2 755,1	94,3
<i>tumanlar:</i>		
<b>Karmana</b>	3 445,3	97,8
<b>Konimex</b>	1 945,7	96,6
<b>Qiziltepa</b>	2 046,2	96,0
<b>Navbahor</b>	1 263,8	97,4
<b>Nurota</b>	1 050,9	95,8
<b>Tomdi</b>	1 249,1	92,4
<b>Uchquduq</b>	2 755,0	96,3
<b>Xatirchi</b>	1 473,9	96,9


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **113,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **27,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **70,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **95,7** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **52,6** %) tashkil etdi.


### O'zgarish sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **70,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>113,8</b>	<b>72,9</b>	<b>70,3</b>	<b>95,7</b>	<b>43,5</b>	<b>52,6</b>
Navoiy sh.	24,9	96,9	24,9	96,9	-	-
Zarafshon sh.	5,2	89,2	5,2	89,2	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	30,6	52,8	2,1	81,8	28,5	51,5
Konimex	3,6	67,7	1,8	99,0	1,8	51,4
Qiziltepa	12,1	74,7	7,3	96,6	4,8	55,5
Navbahor	0,7	81,7	0,7	81,7	-	-
Nurota	4,5	68,9	2,2	100,6	2,3	52,9
Tomdi	1,2	73,2	1,2	73,2	-	-
Uchquduq	1,8	82,5	1,8	82,5	-	-
Xatirchi	29,2	86,0	23,1	99,7	6,1	56,5

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



0,8  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



37,6  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



3,2  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

8,2  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



1,7  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

0,7  
mlrd. so'm



Tuxum

7,0  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

1,8  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2,2  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **70,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**37,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

1,0  
mlrd. so'm



Ziravorlar

6,1  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 35,1 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 7,9 mlrd. so'mni, otlar 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar 0,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 % ni tashkil etib, 48,6 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 35,5 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 87,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>48,6</b>	<b>64,5</b>	<b>6,2</b>	<b>84,2</b>	<b>42,4</b>	<b>62,3</b>
Navoiy sh.	18,9	60,8	4,7	64,0	14,2	59,8
Zarafshon sh.	7,7	72,0	1,4	-	6,3	58,9
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	9,2	71,8	0,1	197,4	9,1	71,3
Konimex	0,9	63,3	-	-	0,9	63,3
Qiziltepa	3,5	59,4	-	-	3,5	59,4
Navbahor	1,8	72,9	-	-	1,8	72,9
Nurota	0,9	62,5	-	-	0,9	62,5
Tomdi	0,4	64,0	-	-	0,4	64,0
Uchquduq	1,6	67,0	-	-	1,6	67,0
Xatirchi	3,7	56,2	-	-	3,7	56,2

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil  
yanvar-may



2020- yil  
yanvar-may



**Nodavlat mulk**

**Davlat mulki**

2019- yil yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **3,1 %** dan **8,3 %** ga ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **48,6** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **64,5 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **44,6** mlrd. so'm nodavlat mulkka (91,7 %) hamda **4,0** mlrd. so'm (8,3 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Navoiy shahriga (21,1 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>48 579,1</b>	<b>100,0</b>	<b>44 549,5</b>	<b>91,7</b>	<b>4 029,6</b>	<b>8,3</b>
Navoiy sh.	18 840,9	38,8	14 861,9	78,9	3 979,0	21,1
Zarafshon sh.	7 747,0	15,9	7 747,0	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	9 158,5	18,9	9 107,9	99,4	50,6	0,6
Konimex	920,7	1,9	920,7	100,0	-	-
Qiziltepa	3 535,8	7,3	3 535,8	100,0	-	-
Navbahor	1 742,0	3,6	1 742,0	100,0	-	-
Nurota	948,5	2,0	948,5	100,0	-	-
Tomdi	399,7	0,8	399,7	100,0	-	-
Uchquduq	1 618,4	3,3	1 618,4	100,0	-	-
Xatirchi	3 667,6	7,5	3 667,6	100,0	-	-

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **662,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **30,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **220,9** mlrd. so'mni (**55,4 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **441,7** mlrd. so'mni (**4,7 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **312,5** mlrd. so'mni (**4,4 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **129,2** mlrd. so'mni (**5,3 %** ga kamayish) tashkil etdi.

### O'zgarish sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Konimex (150,2 %), Qiziltepa (98,8 %), Karmana (97,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>662,6</b>	<b>69,1</b>	<b>220,9</b>	<b>44,6</b>	<b>441,7</b>	<b>95,3</b>
Navoiy sh.	384,2	57,2	216,3	43,7	167,9	95,1
Zarafshon sh.	11,5	89,2	-	-	11,5	89,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	132,4	97,6	3,2	-	129,2	95,3
Konimex	2,7	150,2	1,0	-	1,7	95,5
Qiziltepa	47,0	98,8	-	-	47,0	98,8
Navbahor	23,6	95,1	-	-	23,6	95,1
Nurota	13,8	94,8	-	-	13,8	94,8
Tomdi	1,3	94,1	-	-	1,3	94,1
Uchquduq	13,2	94,4	-	-	13,2	94,4
Xatirchi	32,9	94,9	0,4	91,0	32,5	94,9

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
66,7	33,3	2019- yil yanvar-may
48,3	51,7	2020- yil yanvar-may



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **441,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,7** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **66,7** % ni tashkil etdi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda ulgurji savdo tovar aylanmasi faqatgina Navoiy shahri va Karmana, Konimex, Xatirchi tumanlarida yirik korxonalar tomonidan, qolgan 6 ta hududda esa asosan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Navoiy viloyatida so'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rne ko'payib bormoqda, hisobot davrida davlat sektorining jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,05 %** dan **0,07 %** ga ko'paygan. 2020- yilning yanvar-may oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **662,6** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **662,2** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulki faqatgina Karmana (0,3 %) tumanida saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.